

TIJORAT BANKLARINI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

To‘xtayeva Bahor Rashid qizi

Bank-moliya akademiyasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfelini samarali boshqarish masalalari, ularning iqtisodiyotdagi roli hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro va milliy amaliyot misolida kredit risklarini kamaytirish, portfelni diversifikatsiya qilish hamda nazorat tizimini takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. O‘zbekiston bank tizimi transformatsiyasi jarayonida kredit siyosatini optimallashtirish, “yashil kreditlash” konsepsiyasini rivojlantirish va portfel barqarorligini ta’minlashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Maqola natijalari tijorat banklarining kredit portfelini samarali boshqarish, risklarni minimallashtirish va iqtisodiy o‘shishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar:

Tijorat banklari, kredit portfeli, risk, diversifikatsiya, barqarorlik, kredit siyosati, moliyaviy tizim, rentabellik, likvidlik, sun’iy intellekt, big data, Basel III, monitoring, HHI indeksi, defolt, muammoli kreditlar, yashil kreditlash, bank transformatsiyasi, iqtisodiy islohotlar, raqamli texnologiyalar.

Kirish

So‘nggi yillarda global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya va inflyatsiya xavflari kuchaygani sababli tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish zaruriyati jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kredit portfelining yomonlashuvi nafaqat banklar uchun moliyaviy yo‘qotishlarga, balki tizimli risklarning ortishiga olib keladi. Shu bois rivojlangan mamlakatlar banklari kredit baholash tizimini raqamlashtirish, sun’iy intellekt va “big data” asosida mijozlarning to‘lov qobiliyatini real vaqt rejimida kuzatish orqali portfel sifatini yaxshilashga intilmoqda. Masalan, 2023-yilda JPMorgan Chase banki kreditlarining 98 foizi, Deutsche Bankda esa 94 foizi past riskli deb baholangan.

Xalqaro tadqiqotlar kredit risklarini kamaytirish, portfelni diversifikatsiya qilish va raqamli tahlil mexanizmlarini joriy etish yo‘nalishida olib borilmoqda. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu sohada ilmiy yondashuvlar yetarli emas. Kelgusida kredit sifatini oshirish, risklarni prognozlash va sug‘urta mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida qaror qabul qilishni rivojlantirish zarur.

O‘zbekistonda esa bank sektorini transformatsiya qilish, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish va raqamli xizmatlarni kengaytirish jarayonlari kredit portfeli sifati masalasining strategik ahamiyatini oshirmoqda. Ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushi ortayotgani, tahlil mexanizmlarining yetarli emasligi va riskli aktivlar salmog‘ining yuqoriligi tizim barqarorligiga xavf tug‘diradi. Shu bois kredit portfeli tarkibi, mijozlarning to‘lov qobiliyati hamda kredit reyting tizimlarini ilmiy o‘rganish, xalqaro metodologiyalarni joriy etish va monitoring samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit portfelini boshqarish jarayonlari asosan risklarni kamaytirish, portfelni diversifikatsiya qilish va nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotlarda kredit portfeli strukturasi optimallashtirish, risk va daromadlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash hamda qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini tahlil qilish muhim yo‘nalish sifatida ko‘riladi.

K. Miyamoto (2022) kredit portfelidagi risklarni baholashda kvant algoritmlarining an‘anaviy modellarga nisbatan yuqori aniqlik berishini ta‘kidlaydi, K. Jakob (2022) esa o‘zgaruvchan defolt ehtimollari sharoitida korrelyatsiya parametrlarini hisoblash modelini ishlab chiqqan. J.A. Castillo va A. Mora-Valencia (2023) kichik va o‘rta biznes kredit portfellarida “axloqiy tavakkalchilik” omilining muhimligini ko‘rsatgan.

L.S. Mbeukam (2024) kredit portfelidagi o‘tish risklarini baholashda moliyaviy derivativlar va sug‘urta vositalaridan foydalanishni taklif etgan. Ozili P.K. (2019) esa muammoli kreditlarning ko‘payishi bank tizimining ishonchligini pasaytirishini aniqlagan.

Ferreira C. va Ofria & Mucciardi (2022) kredit portfeli sifatiga makroiqtisodiy barqarorlik va fiskal siyosat bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlab, davlat qarorlarining izchilligi kredit sifatini belgilovchi muhim omil ekanini qayd etgan.

Umuman, xorijiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kredit portfelini boshqarishda risklarni kamaytirish, rentabellikni ta‘minlash va bank barqarorligini mustahkamlash uchun integratsiyalashgan tahliliy modellar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash zarur.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar — N. Jumayev, B. Berdiyarov, A. Burxanov, O. Sattarov, Sh. Xannaev, M. Toshboev, Sh. Madrahimov va S. Ergashevlarning tadqiqotlari milliy bank tizimining barqarorligi, likvidlikni boshqarish va kredit portfeli sifatini yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan.

N. Jumayev (2020) tijorat banklarida kredit portfelining sektorlar bo‘yicha diversifikatsiyasi risklarni kamaytirishning muhim omili ekanini ta‘kidlagan. B. Berdiyarov (2020) monetar siyosat vositalarining bank likvidligi va kreditlash hajmiga

ta'sirini tahlil qilgan. A. Burxanov (2020) esa kredit portfeli sifati va muammoli kreditlar ulushini bank moliyaviy xavfsizligining asosiy mezonini sifatida baholaydi.

Sh. Xannaev (2021) kredit portfeli samaradorligini aniqlashda bank rentabelligi, aktivlar sifati va kapital yetarliligini birgalikda tahlil qilish zarurligini asoslagan. M. Toshboev (2021) risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishni taklif etgan bo'lsa, Sh. Madrahimov (2020) kredit risklarini oldindan prognozlashda zamonaviy monitoring tizimlarining ahamiyatini ko'rsatgan.

S. Ergashev (2022) esa kredit portfelini diversifikatsiya qilish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil ekanini ilmiy asosda bayon etgan.

Umuman olganda, milliy olimlar tadqiqotlari tijorat banklarida kredit portfeli boshqaruvi murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning samaradorligi bankning likvidligi, foydaliligi va barqarorligiga bevosita ta'sir etishini ko'rsatadi. Shu bois, kredit portfelini boshqarishda ichki siyosat, tashqi iqtisodiy omillar va raqamli tahlil texnologiyalarini uyg'un qo'llash zarur.

Asosiy qism

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliya tizimining eng faol subyektlaridan biri bo'lib, ularning asosiy faoliyati kreditlash bilan bog'liqdir. Kredit operatsiyalari banklarning eng daromadli, ammo eng xavfli yo'nalishi sanaladi. Ular iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kredit risklari, likvidlik yetishmovchiligi va qaytmas kreditlar bank tizimi barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradi.

Kredit portfeli bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etib, uning sifati va diversifikatsiyasi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi muhim mezondir. Xalqaro tajribada Markovitsning "portfel nazariyasi", Sharpe'ning "risk-daromad koeffitsienti", Altman Z-score modeli hamda Basel III standartlari kredit riskini baholashning ilmiy asosini tashkil etadi. Bugungi kunda banklarda kredit portfelini tahlil qilish, risklarni aniqlash, diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va monitoring tizimini takomillashtirish orqali portfel samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaymoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi banklar iqtisodiyotning strategik yo'nalishlarini moliyalashtirishda yetakchi o'rin tutadi. Biroq, ayrim hollarda bu jarayon iqtisodiy emas, balki ma'muriy yoki siyosiy omillar bilan cheklanib, portfel diversifikatsiyasining buzilishiga olib keladi. Bunday holatda risk darajasi oshadi va kredit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) kabi ko'rsatkichlardan foydalanish orqali portfel konsentratsiyasini nazorat qilish muhimdir.

Moliyaviy axborotlarning yetarli emasligi, raqamlashtirish darajasining pastligi va monitoring tizimlarining rivojlanmaganligi ham kredit portfelini boshqarishda asosiy muammolardan biri sanaladi. Shu sababli, kredit riskini aniqlash, tahlil qilish va boshqarishga mo'ljallangan axborot tizimlarini joriy etish zarur.


Banklar uchun kredit portfeli samaradorligini oshirish — bu nafaqat foyda olish, balki risklarni minimallashtirish, kapitalni oqilona taqsimlash va likvidlikni ta'minlash vositasidir. So'nggi yillarda "yashil kreditlash" konsepsiyasi ham ahamiyat kasb etib, ekologik va barqaror loyihalarga beriladigan kreditlar bank rentabelligini oshirishi isbotlangan. Shu bois, tijorat banklari uchun kredit portfelini diversifikatsiya qilish, yangi sohalarni moliyalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish kredit faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

1-jadval

Ilmiy nuqtayi nazardan, kredit portfelining mohiyatini va uning asosiy jihatlari

Aktivlarning iqtisodiy tizimi sifatida	Bank kapitalining real sektordagi aylanmasini, foyda keltiruvchi operatsiyalar hajmini ifodalaydi.
Risk va daromadning o'zaro muvozanatini ta'minlovchi vosita sifatida	Riskni kamaytirgan holda yuqori daromad olish imkonini beruvchi optimal portfelni shakllantirishdir
Strategik boshqaruv ob'ekti sifatida	Bankning kredit siyosatini, kapital yetarliligi darajasini, mijozlar bazasini va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilaydi.

Tijorat banklarining kreditlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda qanday o'rin tutishini keyingi misolda ko'rib chiqamiz.




4.2.1-rasm. Tijorat banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning subyektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹ (mlrd.so'mda)

Yuqoridagi rasm orqali O'zbekiston bank tizimida 2021–2025 yillar davomida jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi va ulushidagi dinamik o'zgarishlarni tahlil qilamiz. mazkur tendensiyalar bank sektorining diversifikatsiyalashuvi, kredit portfelining ko'p qirrali segmentlarga ajralib borayotgani va risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish mexanizmlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortib borayotgani banklar uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi, chunki bu segment, odatda, katta miqdordagi kreditlar emas, balki ko'plab mayda kreditlar orqali portfelni kengaytiradi. Bu esa kredit portfelining xatar darajasini pasaytiradi va bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, so'nggi yillarda kuzatilayotgan bu strukturaviy siljishlar moliyaviy tizimda muhim sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirib, bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga olib keldi.

2020 yilda xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi 100 947,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 228 718,0 mlrd so'mga yetgan. Ya'ni 5 yilda xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi 2,3 barobarga oshgan. Shu bilan birga, milliy

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

valyutadagi kreditlar 2020 yildagi 110 633,2 mlrd so‘mdan 2025 yilda 304 403,2 mlrd so‘mga yetgan, bu esa 2,75 barobardan ortiq o‘shishni anglatadi. Mazkur statistik o‘zgarishlar milliy valyutadagi kreditlar hajmining xorijiy valyutadagiga nisbatan tezroq o‘sayotganini ko‘rsatadi.



4.2.3-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining valyuta birliklariga ko‘ra o‘zgarish dinamikasi² (mlrd.so‘mda)

Ushbu davrda milliy valyutadagi kreditlarning hajm jihatidan ortib borayotgani nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, balki banklar uchun aktivlar sifati va kredit xavflarining kamayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Milliy valyutada moliyalashtirishning kengayishi bilan banklar kredit siyosatini yanada moslashuvchan yurita boshladi, bu esa, o‘z navbatida, kredit oluvchilar soni va kreditlash segmentlarining diversifikatsiyalashuviga olib keldi. Xorijiy valyutadagi kreditlarning nisbatan pasayib borayotgan salmog‘i esa tashqi qarzlilikka bog‘liqlikning kamayib borayotganini bildiradi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining ichki manbalar hisobidan rivojlanayotganini anglatadi.

Xulosa

Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish bugungi kunda moliya tizimi barqarorligini ta‘minlashda eng muhim omillardan biridir. O‘zbekiston iqtisodiyoti

² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

uchun ushbu yoʻnalish nafaqat bank sektorining, balki butun iqtisodiy tizimning rivojlanish barqarorligini belgilaydi. Muallifning tadqiqotidan kelib chiqib, bir nechta asosiy ilmiy va amaliy xulosalarni ajratish mumkin.

Birinchidan, kredit portfeli bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etadi va ularning sifati bevosita bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi hamda daromadlilikini belgilab beradi. Kredit portfelining samaradorligini oshirish uchun tijorat banklari risklarni aniqlash, tahlil qilish va diversifikatsiya qilishning zamonaviy mexanizmlarini qoʻllashi zarur. Ayniqsa, portfelni optimallashtirishda Markovits, Sharpe, Altman modellari va Basel III talablariga asoslanish bank amaliyoti uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston bank tizimi transformatsiya jarayonida boʻlib, bu davrda kredit portfelini raqamli asosda boshqarish, sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda risklarni oldindan prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada qayd etilganidek, “big data” tahlili, kredit reyting tizimlari va raqamli monitoring orqali banklar qarz oluvchilarning toʻlov qobiliyatini real vaqt rejimida aniqlay oladi. Bu esa, kredit sifatini oshirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat ishtirokidagi banklar uchun portfel konsentratsiyasining yuqoriligi va maʼmuriy qarorlarning ustuvorligi kredit risklarining ortishiga sabab boʻlmoqda. Shu bois, portfel tuzilmasini diversifikatsiya qilish, Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) orqali risk darajasini aniqlash va kredit siyosatini bozor tamoyillariga moslashtirish zarur. Bu nafaqat barqarorlikni, balki raqobatbardoshlikni ham oshiradi.

Toʻrtinchidan, maqolada Oʻzbekiston banklarida kredit portfelining milliy va xorijiy valyutadagi hajmlari oʻrtasidagi oʻzgarishlar asosli tahlil qilingan. Milliy valyutadagi kreditlarning oʻsishi ichki moliya manbalarining kuchayganini, tashqi qarzlilik darajasining esa kamayganini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotda mustaqil va barqaror moliyalashtirish tizimi shakllanayotganini koʻrsatadi. Shu jihatdan, milliy valyutadagi kreditlar hajmini kengaytirish strategik yoʻnalish sifatida koʻriladi.

Beshinchidan, tijorat banklarining kredit siyosatida “yashil kreditlash” konsepsiyasining joriy etilishi bank faoliyatini ekologik va barqaror rivojlanish tamoyillariga yaqinlashtirmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy masʼuliyatni ham oshiradi. Yashil kreditlar qaytarilish darajasi yuqori boʻlgani sababli, ular banklar uchun xavfsiz aktivlar sifatida eʼtirof etiladi.

Oltinchidan, maqolada kredit portfeli sifatini oshirish uchun raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligi alohida taʼkidlangan. Raqamlashtirish kredit jarayonlarining shaffofligini oshiradi, inson omilini kamaytiradi hamda kredit tahlili va monitoringini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60, PF–5992 va PQ–162-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bilan hamohangdir.

Yettinchidan, maqoladagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kredit portfelini boshqarishda faqat risklarni kamaytirish emas, balki rentabellikni saqlash ham muhim. Shu maqsadda banklar optimal risk–daromad nisbatini ta‘minlaydigan portfel tuzilmasini shakllantirishlari lozim. Bu borada risklarni baholashning yangi modellari — Value-at-Risk (VaR), stress-test va kredit reyting tizimlaridan foydalanish taklif etiladi.

Sakkizinchidan, muallifning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida kredit portfeli samaradorligini oshirish uchun malakali kadrlar, ilg‘or tahlil dasturlari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari zarur. Bu tizimlar yordamida banklar kredit resurslarining real sektor samaradorligiga ta‘sirini aniqlay oladilar.

To‘qqizinchidan, maqolada keltirilgan statistika tahlillari — kredit portfeli tarkibining subyektlar, valyuta birliklari va risk darajalari bo‘yicha o‘zgarishi — bank tizimida ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar segmentining o‘shishi, banklar uchun barqaror daromad manbaini yaratmoqda va kredit risklarining pasayishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish O‘zbekiston bank tizimining transformatsion jarayonlarida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, risklarni baholashning xalqaro standartlarini qo‘llash va inson omilini kamaytirish orqali banklar moliyaviy barqarorlik, shaffoflik va ishonchlilikka erishadi. Shuningdek, ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan kredit siyosati iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi, real sektorni moliyalashtirishni kengaytiradi hamda milliy bank tizimining global raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov, Q. (2025). Tijorat banklari faoliyatida kredit siyosatini boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq nashriyoti.
2. Ergashev, M. (2024). Bank ishi va moliya bozorlari. Toshkent: TDYU nashriyoti.
3. Karimov, A. & Po‘latov, S. (2023). Kredit portfelini diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari. Toshkent: TDIU nashriyoti.
4. Xolbekov, R. (2023). Bank ishi: nazariya va amaliyot. 4-nashr, yangilangan. Toshkent: Moliya nashriyoti.
5. To‘xtayev, A. (2022). Bank risklarini boshqarish va kredit portfeli tahlili. Toshkent: “Iqtisodiy tadqiqotlar” markazi.

6. Mamatqulov, B. (2022). “Tijorat banklari kredit portfelida risklarni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari”. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, №3, 45–58-betlar.
7. Johnson, S. & Davis, R. (2018). Credit Risk Management and Portfolio Optimization. London: Springer.
8. World Bank Group. (2020). Enhancing Bank Credit Portfolio Management: International Practices and Recommendations. Washington, D.C.
9. Mishkin, F. (2021). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 13th Edition. New York: Pearson Education.
10. <http://www.mf.uz>
11. <http://www.undp.uz>
12. <http://www.stat.uz>
13. <http://www.lex.uz>
14. <https://nbu.uz>
15. <https://OECD.org>
16. <https://UNCTAD.org>
17. <https://www.bls.gov>